

**2025-yil davomida "O'zmilliybank" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida, 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilib 2024-yil 18-dekabrda tasdiqlangan hamda PDF formatda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga taqdim etilgan. (1- ilova)
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplayens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	2024-yil 31-iyuldagi №35/1-244-sonli xat orqali Bosh ofisning tegishli tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga oid barcha normativ huquqiy xujjatlar yoki ichki xujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda yangi mahsulotlarni joriy qilish, mavjud mahsulotlariga o'zgartirish kiritishda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi funksiyasini o'z ichiga olgan Bankning "Komplayens tavakkalchiligi bloki" bilan kelishish yo'lga qo'yilgan. (2-ilova)

3	<p>Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.</p>	<p>Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilgan va aloqa vositalari to'g'risidagi ma'lumot bankning rasmiy veb-saytga joylashtirilgan. (3-ilova) Bankning ishonch telefon raqami +998 78 147-15-04 Elektron pochta manzili (Antimonopol_komplaens@nbu.uz)</p>
4	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.</p>	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlarini oldini olish maqsadida, bank faoliyatiga oid ichki normativ hujjatlar komplayens tekshiruvdan o'tkazish natijasida aniqlangan holatlarni bartaraf etish va echimi bo'yicha tavsiyalar berildi. (4-ilova)</p>
5	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.</p>	<p>Bankda raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmagan.</p>
6	<p>Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.</p>	<p>Bank faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'lingan "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom"ga ilova qilgan holda Bank Boshqaruvi tomonidan 2024-yil 28-mayda tasdiqlangan hamda PDF formatda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga taqdim etilgan. (5-ilova)</p>

7	<p>Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.</p>	<p>Bank faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalarini o'rganish natijasida, raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi. (6-ilova)</p>
8	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomi hamda O'zbekiston respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2025-yil 26-iyundagi "Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish Konsepsiyasini tasdiqlash xaqida"gi talablarini inobatga olgan holda, "O'zmilliybank" AJda ichki me'yoriy hujjatlar va "Standart qoidalar kitobi" yangi tahrirda ishlab chiqildi. (7-ilova)</p>
9	<p>Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.</p>	<p>Bank xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirish maqsadida, "Monopoliyaga qarshi nazorat tizimini joriy etishning ahamiyati" hamda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar" mavzularida o'quv seminarlari tashkil etildi.</p>

10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Bank xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida, xodimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan "Sapsf" elektron platformasida test sinovlari o'tkazildi. - https://new-acc-space-10816.ispring.ru/app/preview/cbfd6344-a51b-11ef-b705-62060442b7e7 - https://new-acc-space-10816.ispring.ru/app/preview/95167980-a5f0-11ef-b3c9-ee32502b5d3d
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Bankning "Komplayens tavakkalchiligi bloki" mas'ul xodimi tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilindi. - https://uza.uz/uz/posts/ozmilliybank-ajda-istemolchilar-huquqi-himoyasi-va-qonuniylik-kafolati_795328 - https://nbu.uz/yangiliklar/ozmilliybank-ajda-istemolchilar-huquqi-himoyasi-va-qonuniylik-kafolati - https://nbu.uz/yangiliklar/ozmilliybank-ajda-istemolchilar-huquqi-himoyasi-va-qonuniylik-kafolati15_12

**Komplayens tavakkalchiligi
bloki rahbari**

ijrochi: Abduxalilov X.
Tel.. (78)147-15-13
(ichki raqam 20-23)



S.Nurkulov